



O‘ZBEKISTON INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA USTUVOR JIHATLARI

Nuraliyeva Sheroza Sheraliyevna

Qarshi davlat Universiteti Iqtisodiyot
fakulteti “Inson resurslarni boshqarish”
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li

Ilmiy rahbar, Qarshi davlat
universiteti stajyor-o‘qituvchisi.
ORCID: 0009-0005-0823-0024.

Email: shaxzodganiyev46@gmail.com

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish-innovatsion rivojlanishi, mamlakatimizni barqaror o‘sishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson resurslarini yuqori darajada tayyorlash ko‘zda tutiladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish – bu kelajakka sarmoya kiritish demakdir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirishning dolzarbligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni yoritilgan. Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari – ta’lim, tarbiya, sog‘liqni saqlash, malaka va ko‘nikma, shuningdek kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ustuvor yo‘nalishlar sifatida zamonaviy bilim va texnologiyalarga asoslangan ta’lim tizimi, innovatsion salohiyatni kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi. Shu bois, “O‘zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirishning asosiy g‘oyalardan biri inson kapitalini rivojlantirish bo‘lib, bu esa aholining



ehtiyojlariga va xalqaro standartlarga to'liq mos keladigan ta'lim tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarini yaratish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, inson resurslari, innovatsion rivojlanish ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot, ta'lim va malaka, kasbiy ko'nikma, ustuvor yo'nalishlar, malakali kadrlar, mehnat bozori, demografik salohiyat, intellektual salohiyat, inson omili, davlat siyosati, islohotlar.

Abstract: The development of human capital in Uzbekistan envisions innovative progress, sustainable growth of our country, socio – economic advancement and high- level training of resources. Investing in human capital means investing in the future. The article highlights the relevance of human capital development in the Republic of Uzbekistan and its role in economic and social progress. The article analyzes the reforms being implemented in the main components of human capital –education and upbringing, healthcare, skills and qualifications, as well as the development of professional competencies. It also justifies the need to strengthen the education system based on modern knowledge and technologies, and to enhance innovative potential as priority directions. Therefore, one of the main ideas in the implementation of the “Uzbekistan-2030” strategy is the development of human capital, which envisions the creation of education, healthcare, and social protection systems that fully meet the needs of the population and international standards.

Keywords: Human capital, human resources, innovative development, socio-economic development, education and skills, professional skills, strategic directions, qualified personnel, labor market, democratic potential, intellectual potential, human factor, state policy, reforms.



Аннотатсия: Развитие человеческого капитала в Узбекистане предусматривает инновационное развитие, устойчивый рост нашей страны, социально-экономическое продвижение и подготовку человеческих ресурсов на высоком уровне. Инвестирование в человеческий капитал – это инвестирование в будущее. В данной статье освещается актуальность развития человеческого капитала в Республике Узбекистан и его роль в экономическом развитии. Анализируются проводимые реформы в основных составляющих человеческого капитала-образование и воспитание, здравоохранение, навыки квалификация, а также развитие профессиональных компетенций. Также обосновывается необходимость укрепления системы образования, основанной на современных знаниях и технологиях и усиления инновационного потенциала как приоритетных направлений. Поэтому одной из основных идей реализация стратегии «Узбекистан-2030» является развитие человеческого капитала, что предусматривает создание систем образования, здравоохранения и социальной защиты, полностью соответствующих потребностям населения и международным стандартам.

Ключевые слова: Человеческий капитал, человеческие ресурсы, инновационное развитие, социально-экономическое развитие, образование и навыки, профессиональные навыки, стратегические направления, квалифицированные кадры, рынок труда, демократический потенциал, интеллектуальный потенциал, человеческий фактор, государственная политика, реформы.

Kirish: Inson kapitali tushunchasi iqtisodiyotda insonning bilim, ko'nikma, salohiyatni, salomatligini va tajriba kabi xususiyatlarni ifodalaydi, hamda inson resursining iqtisodiy qiymati hisoblanadi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish – bu kelajakka sarmoya kiritishdir. Inson kapitalini maqsadi – iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, yashash sifatini



oshiradi, ijtimoiy taraqqiyotga erishish va bozor talablariga moslashuv hisoblanadi. Inson kapitali bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat va davlat taraqqiyotining ham asosiy omillardan biridir. Inson kapitalining maqsadi birinchi o'rinda o'sishni rag'batlantirish hisoblanadi. Bilim va malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Ikkinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish hisoblanadi. Malakali, tajribali, bilimli, kadrlar albatta, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladi. Bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi. Uchinchidan ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hisoblanadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari orqali ijtimoiy adolat bilan ta'minlanadi, shundagina ijtimoiy tabaqalanish kamayadi. To'rtinchidan esa innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi. Bunda inson kapitali yangi g'oyalar, texnologiyalar va ish uslublarini ishlab chiqarishda asosiy o'rinni egallaydi. Beshinchi maqsadi yashash sifati va farovonlikni oshirish hisoblanadi. Shuning uchun bilimli va sog'lom insonlar hayotdan mamnun bo'lib, faol ijtimoiy hayot kechiradi. Inson kapitalini predmeti bu insonning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, ya'ni bilim, ko'nikma, sog'liq, malaka va intellektual salohiyat orqali qanday qilib jamiyat va iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishi jarayonini o'rganish demakdir. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, insonning salohiyatini ta'lim, ijtimoiy tarbiya va sog'liqni saqlash orqali shakllantirish hisoblanadi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishning samaradorligi ustuvor jihatlari hisoblanadi. Mehnat bozorida inson kapitalining roli muhim ahamiyatga ega. Inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi va inson resurslar rivoji uchun ham katta hissa qo'shadi. Ya'ni bu fan insonni faqat iste'molchi emas, balki ishlab chiqarish, innovatsion va ijtimoiy taraqqiyotning faol subyekti sifatida o'rganadi. Inson kapitalini vazifalari inson resurslarini rivojlantirish orqali jamiyat va iqtisodiyot oldida turgan muhim maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy yo'nalishlardir. Inson kapitalini asosiy vazifalarining eng birinchisi ta'lim va bilim darajasini oshirish hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimi orqali har bir shaxsning bilim ko'nikma va malakasini oshirish bo'lib, insonning mehnat bozoridagi



qiymatni oshiradi. Ikkinchi vazifasi sogʻlom turmush tarzini shakllantiradi. Asosan sogʻliqni saqlash tizim orqali insonlarning sogʻlom boʻlishini taʼminlaydi. Inson kapitalini saqlash va rivojlantirishning muhim shartidir. Albatta, sogʻlom inson samarali ishlaydi va faol hayot kechiradi. Uchinchi vazifasi esa kasbiy malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish hisoblanadi. Doimiy oʻqitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari orqali insonlarni zamonaviy mehnat bozoriga moslashga tayyorlash vazifasi bajariladi. Inson kapitalini toʻrtinchi vazifasi esa, innovatsion ijodiy fikrlarni ragʻbatlantirishdir. Bunda inson kapitali yangicha fikrlashga undaydi. Bu esa texnologik yangiliklar, innovatsiyalar va iqtisodiy raqobatdoshlikni kuchaytiradi. Beshinchi vazifa ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar barobarligini taʼminlatdi. Taʼlim sohasida va sogʻliq sohasida teng imkoniyatlar barobarligini taʼminlash yaʼni yaratish orqali jamiyatda adolat, barqarorlik va farovonlikni taʼminlashga xizmat qila oladi. Eng muhim vazifalardan biri bu oltinchi vazifasi mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi. Bunda malakali va sogʻlom ishchi kuchi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu vazifasi esa umumiy iqtisodiy oʻsishni muhim omili hisoblanadi. Inson kapitalini obyekt bu insonning oʻzi yaʼni insonning aqliy salohiyati, jismoniy salomatligi, bilimi, malakasi va tajribasi, innovatsion fikrlash qobiliyati kiradi. Inson kapitali iqtisodiyotda ishlab chiqarishning muhim resurslaridan biri hisoblanadi va obyekt bevosita oʻzgaruvchan va rivojlanishga qodir insonning oʻzi hisoblanadi. Aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, inson kapitali tushunchasi doirasida oʻrganiladigan va unga bevosita taʼsir qiluvchi shaxslar, jarayonlar tizimidir. Inson kapitali kuchli boʻlsa, jamiyatda madaniy, ilmiy va maʼnaviy taraqqiyot tezlashadi. Inson kapitalini subyekti deganda inson kapitalini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanishda faol ishtirok etuvchi shaxs nazarda tutiladi. Qisqacha qilib aytganda, obyekt insonning oʻzi, subyekt inson kapitaliga taʼsir koʻrsatuvchi va uni rivojlantiruvchi tomonlar hisoblanadi. Inson kapitalini subyektlari quyidagilar hisoblanadi.



1. Davlat-ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, mehnat siyosati orqali inson kapitalini rivojlantiradi.
2. Oilaviy muhit – farzandning tarbiyasi, boshlang'ich ta'lim va qadriyatlarini shakllantiradi.
3. Ta'lim muassalari- bilim va ko'nikma beradi.
4. Korxona va ish beruvchilar – ishchi kuchini rivojlantiradi.
5. Shaxsning o'zi – o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi bilan asosiy subyektlardan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda inson kapitalini rivojlantirish har qanday mamalakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson resurslaridan to'g'ri foydalanish va rivojlantirish milliy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillardan bo'lib biri hisoblanadi. Inson kapitali bilim salomatlik, kasbiy ko'nikmalar va innovatsion salohiyatning jamlanmasidir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Mazkur mavzuni yoritishdan maqsad – O'zbekistonda inson kapitalining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini, uni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar, mavjud muammolar va istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson resurslaridan foydalanish va uni rivojlantirishning yangi modeli insonga asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va moddiy ne'matlarning iste'molchisi sifatida qaraydi. Har qanday mamlakatning kelajagi tobora iqtisodiy jarayonlarning o'sishi ta'minlovchi asosiy omilga aylanib borayotgan insonning yaratuvchanlik qobiliyatlarining sifat o'garishlari bilan bevosita bog'liq. Inson salohiyati jamiyat milliy boyligining bir qismini tashkil etadi. Inson kapitalining ko'p qirraligi insonning ko'p qirraligi bilan



tavsiflanadi. Iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish kengayib borishi har bir alohida olingan bosqichida inson kapitalining oldingi bosqichlarida hisobga olinmagan elementlari yuzaga chiqishi mumkin. Mehnat salohiyatining mazmuni, ta’riflashning murakkabligi insonning qobiliyatlarining chegaralarini aniq belgilashning imkoni yo’qligi bilan bo’liqdir. Yuqori salohiyatli inson resurslari innovatsiyalar yaratishda, ish samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda muhim rol o’ynaydi. Bu esa iqtisodiy o’sish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Inson kapitaliga yo’naltirilgan investitsiyalar bu kelajakdagi iqtisodiy yutuqlar, yuqori daromadli ishchi kuchi va barqaror ijtimoiy muhit uchun eng muhim omillardan biridir.

O’zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish, zamoniy kadrlarga ehtiyojni ta’minlash maqsadida maktab, kollej, texnikum va oliy ta’lim muassalarining o’quv dasturlari yangilanmoqda. Raqamli ta’lim va kasbiy malaka oshirish dasturlariga ham e’tibor qaratilgan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan onlayn o’quv platformalari kengaymoqda, aholi raqamli savodxonligini oshirishga qaratilmoqda. Sog’liqni saqlash inson kapitalida muhim omillardan hisoblanadi. Aholini sog’lom bo’lishi mehnatga layoqatlilik va barqaror rivojlanish asosi. Sog’liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, qamrovni kengaytirish bo’yicha chora-tadbirlar ko’rilmoqda. Mehnat bozori va masalalariga oydinlik kiritildi. O’zbekiston mehnat bozorida sifatli ishchi kuchiga talab ortib bormoqda. Bu esa professional malakani oshirish va yoshlar bandligini ta’minlashni dolzarb masalaga aylantirdi.

“Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, baland parvoz tushuncha emas, Inson qadri deganda avvalo, har bir fuqoroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Har bir fuqoro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”, deya ta’kidladi. Prezidentimiz rahbarligida joriy 2025-yil 26-yanvar kuni



bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatning har bir oilasi va unga tug‘ilgan farzandlarni kichik yoshidan boshlab bilim olishga yo‘naltirish, qalbida ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni eng yangi texnologiyalar, jahon standartlari darajasidagi darslik va qo‘llanmalar bilan o‘qitish lozimligi aytib o‘tildi.

Qashshoqlik shunchaki pul yo‘qligini anglatmaydi balki, bilimlar jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko‘nikma malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o‘rishni ta‘minlaydi. Bu hodisa esa doimiy ravishda ta‘limni moliyalashtirib borishni taqazo etadi. Yoshlarni yuqori malakali kasb sohiblari etib tarbiyalash bugungi kunda yangi O‘zbekistonning ustuvor davlat siyosatiga aylandi. Xususan, oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi 25 foizdan oshdi. Oliy ta‘lim muassalari soni qisqa muddatda 78 tadan 157 taga yetkazildi. Sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllari, ilmiy darajalarga ega professor-o‘qituvchilar maoshiga 60 foizgacha ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi. Fan va ta‘limga asoslangan jamiyatda inson qadri ulug‘dir. “Axborotga kim egalik qilsa, u dunyoga egalik qiladi”, deb bejizga aytilmagan.

2019-yil yakunida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida¹ 2020-yilni “Ilm, ma‘rifatni va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e‘lon qildi va ushbu yilda mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasadi, albatta, bu bevosita inson kapitali omili bilan bog‘liqdir.

Tahlil va natijalar: Ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma‘naviy sohadagina emas, balki takror hosil qilish aloqalaridan ham markaziy o‘rin ajratila boshlaydi. Insonni rivojlantirishning asosiy mezonlari umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan insonni rivojlanish indeksidir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2019-yil dekabr



Klassifikatorlar	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	19158,2	19334,9	19517,5	19739,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1074,7	1066,1	1067,6	1072,6
Andijon viloyati	1754,8	1745,3	1780,8	1799,6
Buxoro viloyati	1067,1	1072,3	1074,7	1089,2
Jizzax viloyati	773,8	782,6	791	799,4
Qashqadaryo viloyati	1809,8	1811	1813,4	1826,7
Navoiy viloyati	555,2	564,5	570,6	584,5
Namangan viloyati	1580,4	1586,1	1588,3	1603,9
Samarqand viloyati	2125,2	2122	2164,8	2167,6
Surxondaryo viloyati	1452,2	1464,6	1465,4	1486
Sirdaryo viloyati	485	489,4	487,4	492,2
Toshkent viloyati	1615,4	1622,5	1619,2	1640,7
Farg‘ona viloyati	2069,3	2083,9	2097,8	2121,7
Xorazm viloyati	1044,8	1047,1	1050,9	1064,3
Toshkent shahri	1750,5	1877,5	1945,6	1991,2

1-jadval. O‘zbekistonda Mehnat resurslar soni yillar kesimida²

O‘zbekistonning insonni rivojlantirishi to‘g‘risidagi birinchi ma‘ruzasi 1995-yilda tayyorlangan. O‘zbekistonda insonni rivojlantirish sohasida erishilgan taraqqiyot aniq

² Stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. Manba: <https://stat.uz/uz/>



ravshan. Ayniqsa, iqtisodiy sohada yuqori natijalarga erishdi. Mamalakatda so‘nggi 10 yillikda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM ning o‘sishi insonni rivojlantirish umumiy indeksi o‘shidan 3 baravar yuqori bo‘ldi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot 3,5 aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 baravar o‘ydi. O‘rtacha ish haqi 14 baravar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarf harajatlari 5 baravar ziyodroq ko‘paydi. Har yili davlatning 50% ijtimoiy sohaga yo‘naltirilmoqda.

Klassifikator	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	66	67	67,2	67,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62	61,1	61,6	62,9
Andijon viloyati	66,5	68,2	69,5	70,6
Buxoro viloyati	68,3	67,2	67,2	68,7
Jizzax viloyati	66,2	67,5	66,2	66,3
Qashqadaryo viloyati	60,9	62,2	61,9	61,9
Navoiy viloyati	66,8	68,3	67,7	69,8
Namangan viloyati	65	65,5	64,8	65,9
Samarqand viloyati	63,2	63,7	64,7	65
Surxondaryo viloyati	63,9	64,5	64,2	63,8
Sirdaryo viloyati	64,8	64,5	64	63,8
Toshkent viloyati	68,2	72,4	71	72,2



Farg'ona viloyati	65,1	66,2	67,1	68,4
Xorazm viloyati	63,7	64	64,7	66,9
Toshkent shahri	81,7	81,3	82,5	82,3

2-jadval. O'zbekistonda bandlik darajasi yillar kesimida³

Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48% ini xotin-qizlar tashkil etadi. O'zbekistonda ta'limga xarajatlar YAIMning 10,0-12,0 ni tashkil etadi, xolbuki, jahon amaliyotida bu ko'rsatgich 3,0-5,0 dan ortmaydi.

Klassifikator	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	370	369	358	348

3-jadval. O'zbekistonda bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni

Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5 foiz, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 83,5 % ga yetdi.

Klassifikator	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	454333,0	442893,0	388762,0	387001,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25189,0	24446,0	21160,0	20834,0
Andijon viloyati	40390,0	36801,0	30197,0	32345,0
Buxoro viloyati	25871,0	25237,022418,0		22955,0
Jizzax viloyati	20198,0	19220,0	16599,0	17099,0

³ Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. Manba: <https://stat.uz/uz/>



Qashqadaryo viloyati	47754,0	47966,0	42536,0	42793,0
Navoiy viloyati	13301,0	13105,0	11320,0	10970,0
Namangan viloyati	38118,0	36978,0	29908,0	28461,0
Samarqand viloyati	53845,0	50929,0	44956,0	45658,0
Surxondaryo viloyati	38521,0	37528,0	32406,0	32782,0
Sirdaryo viloyati	11609,0	11312,0	8955,0	8925,0
Toshkent viloyati	35942,0	35689,0	30587,0	28045,0
Fargʻona viloyati	47688,0	47835,0	42411,0	39759,0

4-jadval. Jami 11-sinf bitiruvchilari soni yillar va hududlar kesimida⁴

Mamlakatda noyob kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasrur amalga oshirilmoqda. 2017-yildan e'tiboran 11 yillik majburiy ta'lim joriy etildi.

Klassifikator	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	19397,2	23316,8	27288,3	31066,6

5-jadval. Sog'liqni saqlash sohasiga qilingan qilingan davlat harajatlari⁵

Onalar o'lim darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalarniki esa 3 baravar kamaydi. Ushbu davrda, ya'ni qariyb 20 yil davomida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rish darajasi 75 yoshgacha oshdi.

⁴ Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. Manba: <https://stat.uz/uz/>

⁵ Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. Manba: <https://stat.uz/uz/>



Klassifikator	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	685,3	735,6	803,9

6-jadval. Maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilari soni⁶

Yuqoridagi ma'lumotlarga qaraganda natijalar quyidagicha :

1. Ta'lim sifati qamrovi ortmoqda barcha bosqichlardao'quvchilarning soni ko'paymoqda, ularning xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda.
2. Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda. O'lim holati kamaymoqda, umid qilinayotgan umr davomiyligi ortmoqda.
3. Yoshlar va ayollar faolligi oshmoqda ya'ni yoshlar va ayollar bandligi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki kuchaymoqda.
4. Mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlamoqda. Kasb-hunar ta'limi orqali ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos malakali ishchi kuchi shakllanmoqda.
5. Texnologik savodxonlik ortmoqda. Bunda raqamli transformatsiya orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishlari rivojlanmoqda.

Insonni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh etishning to'g'ri tanlangan va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan "Harakatlar strategiyasi"ning samarasi ekanligi shubhasiz.

⁶ Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. Manba: <https://stat.uz/uz/>



1-rasm. Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari venn diagrammasi

Yuqoridagi Venn diagramma inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini ko'rsatadi:

Ta'lim – Bilim va kasbiy malaka oshirish.

Sog'liqni saqlash – Insonlarning salomatligi va mehnatga layoqatlilik darajasi.


Kasbiy ko'nikmalar – Zamonaviy ish bozoriga moslashish uchun zarur malakalar.

Ularning o'zaro kesishishida quyidagilar shakllanadi:

- ✓ Sog'lom va bilimli jamiyat – Ta'lim va sog'liqni saqlashning sintezi.
- ✓ Ish bilan bandlik – Sog'liq va kasbiy ko'nikmalar natijasida mehnatga jalb qilish.
- ✓ Malakali ishchi kuchi – Ta'lim va kasbiy ko'nikmalar natijasida bozor talabiga mos ishchilar.



✓ Inson kapitalining to'liq rivojlanishi – Uchala sohaning uyg'unlashuvi orqali barqaror taraqqiyot.



2-rasm. O'zbekistonda mehnat bozoridagi o'zgarishlari bar diagrammasi

Yuqoridagi bar diagramma O'zbekistonda mehnat bozoridagi o'zgarishlarni ko'rsatadi:

2020-yilda bandlik darajasi 66% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 67.9% ga oshgan.

Ish bilan band aholining ortishi mehnat bozorida malakali kadrlar sonining ko'payishi va iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida ko'rilishi mumkin.





3-rasm. Inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'siri bosqichlari

Yuqoridagi jarayon chizmasi inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'siri bosqichlarini ko'rsatadi:

- 1 Ta'lim va malaka oshirish – Bilimli va kasbiy malakaga ega kadrlar shakllanadi.
- 2 Sog'liqni saqlash va samarali ish kuchi – Sog'lom odamlar samarali mehnat qiladi.
- 3 Ish bilan bandlik va innovatsiyalar – Malakali kadrlar iqtisodiyotga innovatsiyalar olib kiradi.
- 4 Ishlab chiqarish samaradorligi – Yangi texnologiyalar va bilimlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
- 5 Iqtisodiy o'sish va farovonlik – Ish samaradorligi oshib, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar; Inson kapitalini rivojlantirish nafaqat, bugungi kunning, balki kelajak avlodlar farovonligining ham asosi hisoblanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bu borada ijobiy natijalar bermoqda. Biroq bu sohada islohotlarni izchil davom ettirish, innovatsion fikrlovchi yoshlarni qo'llab quvvatlash, ta'lim tizimlarini va sog'liqni saqlash tizimlarini doimiy ravishda takomillashtirish zarur. Demak, O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti va raqobatdoshligini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida zamonaviy bilim va malakalar eng muhim resursga aylangan. Shunday ekan, inson kapitaliga investitsiya kiritish iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning asosiy yo'lidir. Bu orqali O'zbekiston o'z fuqorolariga imkoniyatlar yaratib, zamonaviy, innovatsion taraqqiyot sari dadil qadam tashlamoqda ekan. Bundan tashqari, mehnatga bozoriga mos malakali kadrlarni tayyorlash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, iqtisodiy siyosat olib borish orqali inson kapitalining har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratilmoqda. Bularning barchasi



mamlakatda sogʻlom bilimli, faol va innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Oʻzbekistonning inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali kelajakka yoʻnaltirilgan, innovatsionlarga ochiq va raqobatbardosh jamiyatni barpo etmoqda. Umumiy holda, inson kapitalini rivojlantirish orqali Oʻzbekiston nafaqat iqtisodiy jihatdan kuchliroq davlatga aylanishi, balki jamiyatning har bir aʼzosi oʻz salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Shunindek yuqoridagi maʼlumotlarga koʻra oʻz takliflarimni bildirsam ,ular quyidagilar hisoblanadi.

1. Taʼlim sifati va mazmunini takomillashtirish , yaʼni bunda oʻquv dasturini zamonaviy talablar asosida yangilash;
2. Oʻqituvchilarning malakasini oshirish boʻyicha atizimli ishlarni kuchaytirish;
3. Fan va texnologiyalar, muhandislik, sanʼat va matematika yoʻnalishlarini keng chuqurroq joriy etish;
4. Sogʻliqni saqlash tizimini mustahkamlash – birinchi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, profilaktik sogʻliqni saqlash ishlarini kuchaytirish, sifatli va qulay tibbiyot xizmatlarga kengroq imkoniyatlarni yaratish.
5. Yoshlar va ayollarni qoʻllab quvvatlash, kichik biznes loyihalariga grant va imtiyozlar yaratish.
6. Ayollarni taʼlim , mehnat va tadbirkorlik sohasiga faol jalb qilish, yoshlar uchun innovatsion markazlar tashkil etish.
7. Axborot texnologiyalari boʻyicha oʻquv markazlarini koʻpaytirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yangi ish oʻrinlarini yaratish.
8. Inson kapitalini rivojini muntazam tahlil qilish va strategiyalarini moslashtirish.



9. Mamlakatning yoshlari uchun amaliyot va stajirovka dasturlarini ko'paytirish.

10. Uy-joyga muhtoj fuqorolarni uy bilan ta'minlash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy ko'mak berish va kreditlarni foizini kamaytirgan holda, ularni yangi loyihalar bo'yicha arzon ammo, sifatli bo'lgan uy bilan ta'minlash chora –tadbirlarini yo'lga qo'yish, bunda, tabaqalanish ham, fuqorolarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. **O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi** – O'zbekistonning inson kapitali, ta'lim, mehnat bozori va sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlari. Manba: www.stat.uz
2. **O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali** – Inson kapitalini rivojlantirishga oid islohotlar va qonunchilik hujjatlari. Manba: www.gov.uz
3. **O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi** – Inson kapitaliga oid qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar. Manba: www.lex.uz
4. **Kiberleninka ilmiy platformasi** – Inson kapitali va innovatsion iqtisodiyot bo'yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar. Manba: www.kiberleninka.ru
5. **“Yangi O'zbekiston” gazetasi** – O'zbekistonda inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dolzarb tahlillar. Manba: www.yuz.uz
6. **“Review.uz” – Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi** – O'zbekiston iqtisodiy siyosati va inson kapitali bo'yicha tahlillar. Manba: www.review.uz
7. **Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Konferensiyalari** – Inson kapitali va innovatsion rivojlanish bo'yicha ilmiy maqolalar. Manba: conference.tsue.uz
8. **Innovative Academy RSC** – Innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot va inson kapitali masalalariga oid tadqiqotlar. Manba: www.innovativeacademy.uz
9. **O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi Markazi** – O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va inson kapitalini rivojlantirish rejalari. Manba: www.strategy.uz